

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 4-qism. Dekabr-2025**

**JINOYAT HUQUQIDA QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO
QILADIGAN HOLATLAR TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNING
AHAMIYATI.**

**SUBANOV Olimjon Suyarkul o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası
katta o‘qituvchisi, dotsent (+99898) 331-70-73**

Annotasiya. Mazkur maqolada jinoyat huquqi nazariyasida muhim o‘rin tutuvchi qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar institutining mazmuni, huquqiy va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavflilik, g‘ayriqonuniylik ayb, kam ahamiyatli qilmish, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, jinoyat kodeksi 35–40-moddalar, huquqiy mas’uliyat, jinoiy javobgarlik.

**ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И ЗНАЧЕНИЕ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ,
ИСКЛЮЧАЮЩИХ ПРЕСТУПНОСТЬ ПРЕСТУПЛЕНИЯ В
УГОЛОВНОМ ПРАВЕ.**

Аннотация. Настоящая статья посвящена анализу содержания, правового и практического значения института обстоятельств, исключающих преступность деяния, который занимает важное место в теории уголовного права.

Ключевые слова: Обстоятельства, исключающие преступность деяния, признаки преступления, общественная опасность, противоправность деяния, малозначительность деяния, необходимая оборона, последняя необходимость, статьи 35–40 УК, юридическая ответственность, уголовная ответственность.

**CONCEPT, TYPES AND SIGNIFICANCE OF CIRCUMSTANCES
EXCLUDING THE CRIMINALITY OF A CRIME IN CRIMINAL LAW.**

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 4-qism. Dekabr-2025

Annotation. This article is devoted to the analysis of the content, legal and practical significance of the institute of circumstances excluding the criminality of an act, which occupies an important place in the theory of criminal law.

Key words: Circumstances excluding the criminality of an act, elements of a crime, public danger, illegality of an act, insignificance of an act, necessary defense, last necessity, Articles 35–40 of the Criminal Code, legal liability, criminal liability.

Jinoyat huquqi nazariyasida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar instituti alohida o'rin tutadi. Mazkur institutning huquqiy tabiati, uning qonunchilikdagi belgilanishi va amalda qo'llanish mexanizmi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki uni javobgarlikdan ozod etish masalasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki har qanday jinoyat huquqiy baholashning asosini jinoyat tarkibining mavjudligi tashkil etadi. Agar qilmishda jinoyat tarkibining barcha belgilari — ijtimoiy xavflilik, g'ayriqonuniylik va ayb mavjud bo'lmasa, u holda bunday harakatni jinoyat deb topish qonuniylik va adolat tamoyillariga zid bo'ladi.

Jinoiyligni istisno etuvchi holatlar institutining qonunchilikda mustahkamlanishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ham, sud amaliyotida ham jinoyat va jinoyat emaslik o'rtasidagi aniq huquqiy chiziqni belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35-moddasi ushbu institutning umumiy huquqiy asoslarini belgilab, jinoyat deb topilishi mumkin bo'lmagan qilmishlarning asosiy belgilari va ularning huquqiy tabiatini yoritadi. Mazkur norma jinoyat huquqining insonparvarlik, qonuniylik va adolat tamoyillarini ta'minlashda muhim kafolat sifatida namoyon bo'ladi.

Qilmishning kam ahamiyatliligi, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, tajovuzchini ushlabda zarar yetkazish, buyruq yoki xizmat vazifasini bajarish, asosli tavakkalchilik va jismoniy yoki ruhiy majburlash kabi holatlar jinoyat tarkibi mavjuddek tuyulsa-da, ularning huquqiy mohiyati bunday qilmishlarni jinoiy deb tan olishga yo'l qo'ymaydi. Bu holatlar muayyan ijtimoiy foydali maqsadlarga qaratilgan yoki muayyan vaziyat tufayli yuridik jihatdan jinoyat deb baholanishi mumkin bo'lmagan harakatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mazkur institut fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, jinoiy-huquqiy repressiyaning asossiz qo'llanishining oldini olishda hamda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida adolatni

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 4-qism. Dekabr-2025

ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jinoyat qonunchiligining ushbu bo'limi sud-tergov amaliyotida ham eng ko'p bahslarga sabab bo'ladigan sohalardan biri hisoblanadi.

Mazkur ishlar yuzasidan huquqni qo'llash amaliyotida turli vaziyatlarning to'g'ri kvalifikatsiya qilinishi, jinoyat va jinoiy bo'lmagan qilmishlarni ajratib berish hamda jinoyat huquqining umumiy qoidalarining to'g'ri talqin qilinishi muhim o'rin tutadi. Shu bois mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish, uning nazariy asoslarini tahlil qilish va amaliyotdagi ahamiyatini ochib berish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi faqat jinoyat tarkibi belgilari to'liq va haqiqiy mavjud bo'lgan hollardagina qonuniy deb topiladi. Qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan jinoyat tarkibining tashqi (rasmiy) belgilari mavjud bo'lishi o'ziga xos sharoitda jinoyat sifatida baholash uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Agar qilmishda jinoyat tarkibining majburiy elementlaridan biri mavjud bo'lmasa, ushbu qilmish huquqiy mohiyatiga ko'ra jinoyat deb tan olinishi mumkin emas va jinoiy javobgarlik istisno etiladi.

Jinoyat kodeksining 35-moddasida jinoiylikni istisno etuvchi holatlar institutining asosiy yo'naltiruvchi huquqiy mezonlari belgilangan bo'lib, ushbu mezonlar nafaqat huquqni qo'llash organlari, balki qonun chiqaruvchi uchun ham yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etadi. Bu holat ushbu institutning JK 3–10-moddalarida nazarda tutilgan adolat, qonuniylik va gumanizm tamoyillari bilan uzviy bog'liq holda amal qilishini ta'minlaydi.

JK 35-moddasi 1-qismiga muvofiq, rasman jinoyat belgilarini o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, ijtimoiy xavflilik, g'ayriqonuniylik yoki aybning mavjud emasligi qilmishni jinoyat deb baholashga yo'l qo'ymaydi. Ushbu qoidalar JK 14-moddasida bayon etilgan jinoyat tushunchasi bilan hamohang bo'lib, jinoyat faqat aybli tarzda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish ekanligiga urg'u beradi. Demak, ushbu belgilardan birortasining bo'lmasligi qilmishning jinoiy emasligini anglatadi.

Qonun jinoiylikni istisno etuvchi holatlar sifatida:

- ijtimoiy xavflilikning yo'qligi (masalan, kam ahamiyatli qilmish),
- huquqqa qarshi yo'nalganlikning yo'qligi (zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va b.)

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 4-qism. Dekabr-2025

- aybning yo'qligi (buyruqni bajarish, jismoniy yoki ruhiy majburlash va h.k.) kabi holatlarni e'tirof etadi. Ayrim holatlarda, ayb mavjud bo'lmaganiga qaramay, qonun ayrim istisnolarni nazarda tutadi: masalan, jinoiy ekanligi oldindan ma'lum bo'lgan buyruqni bajarish yoki og'ir oqibatlar ehtimoli mumkin bo'lgan tavakkalchilik holatida javobgarlik vujudga keladi.

JK 35-moddasi 1-qismi ushbu belgilarning to'liq ro'yxatini belgilab berganligi tufayli, moddada sanab o'tilmagan boshqa holatlarni jinoiylikni istisno etuvchi holat sifatida talqin qilishga yo'l qo'yilmaydi. Bu holat institutning huquqiy aniqligi va qonuniylik tamoyillariga to'liq muvofiqligini ta'minlaydi.

Jinoiylikni istisno etuvchi holatlar faqat muayyan vaziyat yuzaga kelganda ahamiyat kasb etadi. Ular abstrakt holda emas, balki aniq qilmishni sodir etish jarayonidagi vaziyat nuqtai nazaridan baholanadi. Ushbu holatlar muayyan qilmishning ijtimoiy foydali yoki kamida ijtimoiy xavfsiz ekanligini namoyon etadi. Masalan, kam ahamiyatli qilmishda qilmish rasman jinoyat tarkibiga o'xshash bo'lsa-da, uning ijtimoiy xavf darajasi jinoyat darajasiga yetmaydi.

JK 35-moddasining 2-qismi jinoiylikni istisno etuvchi holatlarning to'liq qamrab oluvchi ro'yxatini belgilaydi. Ushbu holatlarga:

- kam ahamiyatli qilmish,
- zaruriy mudofaa,
- oxirgi zarurat,
- tajovuzchini ushlashda zarar yetkazish,
- buyruq yoki vazifani bajarish,
- asosli tavakkalchilik,
- jismoniy yoki ruhiy majburlash kiradi. Ushbu ro'yxat yakuniy xarakterga ega bo'lib, qonun sanab o'tmagan boshqa holatlarni mazkur institut doirasiga kiritish mumkin emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonun faqat jinoiylikni istisno etuvchi holatlarni belgilab qolmasdan, balki ularning qonuniy shartlarini ham aniq ifodalaydi. JK 36–40-moddalarida ushbu holatlarning har biri qonuniy deb topilishi uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv shartlar batafsil bayon etilgan.

• **Kam ahamiyatli qilmishning mohiyati.**

JK 36-moddasiga ko'ra, qilmishning kam ahamiyatliligi unda rasman jinoyat belgilari mavjud bo'lsa-da, ijtimoiy xavf darajasining yetarli emasligi sababli jinoyat

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

deb topilmasligini anglatadi. Kam ahamiyatli qilmishda jinoyat tarkibi mavjuddek tuyulsa-da, qilmishning mohiyati jinoiy harakat darajasiga yetmaydi. Kam ahamiyatlilikni baholashda qilmishning xarakteri, sodir etilishi usuli, motivi, oqibatlari, yetkazilgan zarar miqdori va boshqa holatlar inobatga olinadi. Ammo shaxsning shaxsiy xususiyatlari bunda hal qiluvchi o'rin tuta olmaydi.

- **Zaruriy mudofaaning mohiyati.**

Zaruriy mudofaa Konstitutsiya bilan kafolatlangan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini qonuniy himoya qilish huquqining ifodasi hisoblanadi. Zaruriy mudofaa tajovuzchiga noilojlikdan zarar yetkazish orqali himoya vositasi bo'lib, qonunga zid tajovuzning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy foydali harakatdir. Uning qonuniyligi tajovuzning mavjudligi, uning haqiqiyligi va mudofaa choralari tajovuzga mutanosibli bilan belgilanadi.

- **Oxirgi zaruratning huquqiy xususiyatlari**

Oxirgi zarurat zaruriy mudofaadan farqli ravishda qonunga xilof tajovuzdan himoya qilishga emas, balki huquq bilan muhofaza qilinadigan manfaatlar to'qnashuvini hal qilishga qaratilgan. Unda shaxs tahdid soluvchi xavfni bartaraf etish uchun boshqa manfaatlarga zarar yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin bunda qonunda belgilangan shartlar qat'iy bajarilishi lozim: xavf haqiqiy bo'lishi, uni bartaraf etishning boshqa iloji yo'qligi va yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kam bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar instituti jinoyat huquqining insonparvarlik, adolat va qonuniylik tamoyillariga asoslangan holda shakllangan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu institutning mavjudligi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda, jinoyatchilikka qarshi kurashishda va jinoiy jazoni faqat haqiqatan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llashda katta amaliy ahamiyatga ega.

JK 35-moddasida belgilanganidek, qilmishning tashqi jihatdan jinoyat belgilariga o'xshash bo'lishi uni jinoyat deb topish uchun yetarli emas. Faqat ijtimoiy xavf, g'ayriqonuniylik va aybning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi qilmishni jinoyat deb e'tirof etishga asos bo'ladi. Ushbu belgilardan birortasining yo'qligi esa jinoiylilikni istisno qiladi va shaxsni javobgarlikdan ozod etishni ta'minlaydi. Bu esa jinoiy javobgarlikni haddan tashqari qo'llanishiga chek qo'yib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida adolatli yondashuvni ta'minlaydi.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 4-qism. Dekabr-2025

Qilmishning kam ahamiyatli ekanligi, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog‘ida zarar yetkazish, buyruq yoki vazifani bajarish, asosli tavakkalchilik, jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida sodir etilgan harakatlar kabi holatlar huquqiy va ijtimoiy jihatdan foydali maqsadlarni ko‘zlagan hollarda qonun tomonidan jinoyat deb topilmaydi. Ushbu holatlar fuqarolarning qonuniy himoyasi, xavfning oldini olish, jamiyat manfaatlarini saqlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, mazkur institut fuqarolarning huquqiy faolligini oshirib, ularni jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etishga undaydi. Chunki zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat kabi huquqiy imkoniyatlar fuqarolarga o‘zini, boshqalarni va davlat manfaatlarini himoya qilish huquqini amaliy jihatdan ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning qonunchilikda aniq ifodalanishi jinoyat huquqi tizimining ijtimoiy adolat, huquqiy barqarorlik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda rivojlanishiga xizmat qiladi. Ular jinoyat tarkibining aniq va tahlil etilgan holda qo‘llanishini ta‘minlab, qonunni to‘g‘ri va asosli qo‘llashning muhim kafolati sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 2025
3. Allayorov Jahongir Toshpulatovich "MODELS OF INTERNATIONAL JURISPRUDENCE." Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 6 (2021): 63- 66.
4. M.Jumanazarova. Oxirgi zarurat hamda zaruriy mudofaa kabi qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning o‘zaro farqli va o‘xshash tomonlari.
5. “Jinoyat protsessi ishtirokchilari huquqlarining kafolatlari: xalqaro ilmiyamaliy onlayn-konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent.: TDYUU, 2021. – B. 54-59.